XALQ DEPUTATLARI QUYICHIRCHIQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 18-oktabr VI-116-130-10-140-K/24 Quyichirchiq tumani

Quyi Chichiq tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining 2024-yil 5-iyuldagi 150-10-140-F/24-sonli farmoyishiga asosan Respublika Ayerogeodeziya markazi Toshkent hududlararo bo‘linmasi tomonidan Toshkent viloyati Quyi Chichiq tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko‘ra umumiy perimetri **501 685 metr**, umumiy maydoni **56 796,06** gektar ekanligi aniqlandi. Tumandagi shahar, shaharcha va qishloqlarning umumiy uzunligi va umumiy maydonlari quyidagilardan iborat.

Jumladan:

Do‘stobod shahrining umumiy perimetri 15830 metr, umumiy maydoni 636,88 gektar;

Paxtazor shaharchasining umumiy perimetri 9683 metr, umumiy maydoni 217,31 gektar;

Qo‘rg‘oncha shaharchasining umumiy perimetri 9672 metr, umumiy maydoni 260,80 gektar;

Gul qishlog‘ining umumiy perimetri 30095 metr, umumiy maydoni 3404,71 gektar;

Ketmontepa qishlog‘ining umumiy perimetri 40699 metr, umumiy maydoni 3322,92 gektar;

Qo‘rg‘oncha qishlog‘ining umumiy perimetri 84054 metr, umumiy maydoni 8705,47 gektar;

Maydontol qishlog‘ining umumiy perimetri 65347 metr, umumiy maydoni 8642,92 gektar;

O‘zbekiston qishlog‘ining umumiy perimetri 50220 metr, umumiy maydoni 7010,08 gektar;

Ma’naviyat qishlog‘ining umumiy perimetri 58407 metr, umumiy maydoni 7143,67 gektar;

Toshovul qishlog‘ining umumiy perimetri 59151 metr, umumiy maydoni 6626,50 gektar;

Toshloq qishlog‘ining umumiy perimetri 38458 metr, umumiy maydoni 4394,52 gektar;

Ma’rifat qishlog‘ining umumiy perimetri 40069 metr, umumiy maydoni 6430,28 gektar;

Quyi Chichiq tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda Do‘stobod shahri, shaharchalar va har bir qishloqlarning chegaralari ajratib ko‘rsatgan holda tavsiflandi.

Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb yo‘nalishlari aks ettirildi. Chegara chizig‘ining burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

Respublika ayerogeodeziya markazi Toshkent hududlararo bo‘linmasi tomonidan Quyi Chichiq tumanidagi shaharcha va qishloqlarning, shuningdek tumanga bo‘ysunuvchi Do‘stobod shahri chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan Quyi Chichiq tumanida ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, hudud(massiv)lar kesimida yer maydonlarini deshifrovka qilish, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda natijalari asosida elektron raqamli qishloq xo‘jalik xaritalarini yangilash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan tuman ishchi guruhning 2024-yil 17-sentyabrdagi 1/2-26-24-sonli yig‘ilish bayonini muhokama qilib, “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Quyi Chichiq tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Respublika ayerogeodeziya markazi Toshkent hududlararo bo‘linmasi tomonidan Quyi Chichiq tumanidagi shahar, shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan Quyi Chichiq tumanida ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, hudud(massiv)lar kesimida yer maydonlarini deshifrovka qilish, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda natijalari asosida elektron raqamli qishloq xo‘jalik xaritalarini yangilash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan tuman ishchi guruhning 2024-yil 17-sentyabrdagi 1/2-26-24-sonli yig‘ilish bayonini ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyi Chichiq tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga, ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi matbuot xizmati rahbari A.Ismatillayevga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qarorning tasdig‘i xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashidan so‘ralsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining o‘rinbosari M.Botirov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



XOLMURADOV
AKMAL
ARSLANOVICH

Xalq deputatlari Quyichirchiq tumani
Kengashining
2024-yil 18-oktabrdagi
VI-116-130-10-140-K/24 -son qaroriga
1-ilova


Quyi Chichiq tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklarining chegaralarini belgilash to‘g‘risida

M A’ L U M O T

№	Ma’muriy-hududiy birliklar nomlari	Umumiy perimetri (metr)	Umumiy yer maydoni (gektar)
1	Do‘stobod shahri	15 830	636,88
2	Paxtazor shaharchasi	9 683	217,31
3	Qo‘rg‘oncha shaharchasi	9 672	260,80
4	Gul qishlog‘i	30 095	3 404,71
5	Ketmontepa qishlog‘i	40 699	3 322,92
6	Qo‘rg‘oncha qishlog‘i	84 054	8 705,47
7	Maydontol qishlog‘i	65 347	8 642,92
8	O‘zbekiston qishlog‘i	50 220	7 010,08
9	Ma’naviyat qishlog‘i	58 407	7 143,67
10	Toshovul qishlog‘i	59 151	6 626,50
11	Toshloq qishlog‘i	38 458	4 394,52
12	Ma’rifat qishlog‘i	40 069	6 430,28
	Jami	**510 728**	**56 796,06**

Xalq deputatlari Quyichirchiq tumani
Kengashining
2024-yil 18-oktabrdagi
VI-116-130-10-140-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumanining
ma'muriy-hududiy chegarasini belgilash ishlarining
SXEMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi:

A dan	**B gacha**	***Toshkent shahri yerlari***
B dan	**D gacha**	***O'rta Chirchiq tumani yerlari***
D dan	**E gacha**	***Oqqo'rg'on tumani yerlari***
E dan	**F gacha**	***Sirdaryo viloyati yerlari***
F dan	**G gacha**	***Chinoz tumani yerlari***
G dan	**A gacha**	***Yangiyo'l tumani yerlari***

Shartli belgilar

- Viloyatlar chegarasi
- Tumanlar chegarasi
- Shaharlar va shaharchalar chegarasi
- Qishloqlar (ovullar) chegarasi